

MAMLAKATIMIZDA EKSPORT VA IMPORT SALOHIYATINI OSHIRISHDA BERILAYOTGAN IMTIYOZLAR

Umida Otaxanova

TMI "Xalqaro moliya-kredit" kafedrası o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Mamlakatimizda eksportni moliyalashtirish, sug'urtalash, hamda transportda tashish masalalarida qator imtiyoz va preferensiyalar joriy etilib, tashqi savdo bilan bog'liq nazorat tizimini tubdan isloh qilish va infratuzilma holatini yaxshilashga qaratilgan qator chora-tadbirlar ko'rilmogda. Ushbu maqolada mamlakatimizda eksport salohiyatini oshirish, moliyalashtirish, sug'urtalash kabi qator yo'nalishlarga berilayotgan imtiyozlar haqida bayon etilgan. Davlatimiz tomonidan berilayotgan soliq imtiyozlari va tashqi investorlarga berilayotgan preferensiyalar. Bularning barchasi xalqaro raqobatbardosh tovarlar, ishlab chiqarish, xizmatlarni yaratish va ularni eksport qilish uchun xizmat qilib kelmogda.*

***Kalit so'zlar:** qo'shilgan qiymat solig'i, eksport salohiyati, soliq imtiyozlari, preferensiyalar, sug'urtalash, eksportyor, tadbirkorlik subyekti.*

PRIVILEGES FOR INCREASING EXPORT AND IMPORT POTENTIAL IN OUR COUNTRY

Umida Otaxanova

Teacher of the Department "International Finance and Credit" of the Tashkent Financial Institute.

***Abstract:** A number of benefits and preferences are being introduced in our country in matters of export financing, insurance, as well as transportation, a number of measures are being taken aimed at radically reforming the control system related to foreign trade and improving the state of infrastructure. This article describes the incentives provided in our country in a number of areas, such as increasing export potential, financing, insurance. Tax benefits provided by our state and preferences provided to external investors. All this serves to create internationally competitive goods, production, services and their export.*

***Keywords:** value added tax, export potential, tax benefits, preferences, insurance, exporter, business entity.*

Kirish. So‘nggi yillarda mamlakatimizda eksport salohiyatini oshirish maqsadida respublikamizda tashqi savdoni takomillashtirish, undagi mavjud to‘siq va g‘ovlarni olib tashlash, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda turli hil imtiyozlar berish va qulay shart-sharoitlarni yaratish, tashqi iqtisodiy faoliyatga doir tartib-qoidalarni soddalashtirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar amalga oshirilishi davom etmoqda.

Shu bilan birga, eksportni moliyalashtirish, sug‘urtalash, hamda transportda tashish masalalarida qator imtiyoz va preferensiyalar joriy etilib, tashqi savdo bilan bog‘liq nazorat tizimini tubdan isloh qilish va infratuzilma holatini yaxshilashga qaratilgan qator chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.

Perizentimiz Sh.M.Mirziyoyevning tashabbusi bilan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga muvofiq[1] soliq tizimi isloh qilishni chuqurlashtirish va soliq imtiyozlarini ko‘paytirish belgilandi. Moliyaviy-iqtisodiy jarayonlar shuni ko‘rsatmoqdaki, mamlakatning xalqaro moliyaviy jihatdan qay darajada rivojlanganligi yohud xalqaro moliyaviy arenada tutgan o‘rnini aniqlashning ko‘rsatkichlaridan biri bu mamlakatning eksport va import operatsiyalarini amalga oshirish salohiyati hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda, mamlakatimizda ishlab chiqarish subyektlariga katta miqdorda soliq imtiyozlari va tashqi investorlarga preferensiyalar berib borilmoqda hamda bularning barchasi xalqaro raqobatbardosh tovarlar (ishlar, xizmatlar) ni yaratish va ularni eksport qilish uchun bevosita xizmat qilib kelmoqda. Misol tariqasida aytadigan bo‘lsak, ishlab chiqargan iste‘mol tovarlarining 90 foizdan ortiq qismini eksport uchun yo‘naltirgan tadbirkorlik subyektlariga

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Orolbo‘yi mintaqasida tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2021 yil 20 noyabrdagi PF-25-sonli Farmoniga muvofiq ish haqi fondidan ijtimoiy soliqni 12 foiz emas, balki 1 foiz miqorida budjetga to‘lash imkoniyati yaratilgan[2]. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-avgustdagi 489-son qarori bilan tasdiqlangan “Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi o‘rnini qoplash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq Soliq summasini qoplash uchun asos bo‘luvchi hujjatlar hududiy soliq organlariga to‘liq taqdim etilgan holda qo‘shilgan qiymat solig‘ining salbiy farq summasi eksportyor tadbirkorlik subyektlari uchun ularning bankdagi hisobraqamlariga to‘liq budjet hisobidan qoplab berilayotganligi ham fikrimizga yaqqol misol bo‘la oladi[3]. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini qoplab berish yuzasidan 2022-yil yakunlariga ko‘ra, 19,3 trln so‘m bo‘lsa, joriy yilning o‘tgan o‘n oyida 1 249 ta tadbirkorlik subyekti tomonidan tovarlar eksporti hamda bojxona hududida qayta ishlash bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan va O‘zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqilgan tovarlar realizatsiyasida qo‘llanilgan nol darajali stavka

natijasida hosil bo'lgan QQS salbiy farq summasini qoplash yuzasidan taqdim etilgan 3 936 ta murojaat asosida jami 4 630,1 mlrd so'm mablag'lar qaytarib berilgan. Statistik ko'rsatkichlar va amaldagi soliq siyosati samarasi o'laroq QQS to'lovchilar sonining yildan yilga o'sib borayotganligini hududlar kesimida ko'rildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022 yil 30 sentabrdagi PF-228-sonli Farmoniga muvofiq eksport qiluvchi tashkilotlarga foyda solig'i va aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha soliq solinadigan bazani kamaytirish ko'rinishidagi imtiyozlar tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan tushgan umumiy tushumdagi eksport hajmining ulushidan qat'iy nazar qo'llanilib kelinmoqda[4].

Bundan tashqari, eksport qilinayotgan tovarlar eksportyor tomonidan importyorga havo transporti orqali yetkazilgan hollarda transport harajatlarining 50 foiz qismi eksportni rivojlantirish agentligi tomonidan tadbirkorlik subyektiga qoplab berilayotganligini ham alohida ta'kidlash lozim. Har bir mamlakat tashqi savdoni ta'minlashda, mamlakatda yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan tovarlar ishlab chiqarishni rag'batlantirishda, jahon bozori konyunkturasining o'zgarishlariga uyg'un ravishda tashqi savdo operatsiyalarida soliq nazoratini takomillashtirish muhim masalalardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Eksport va import salohiyatini oshirishda berilayotgan imtiyozlar juda murakkab iqtisodiy tushunchalardan biri bo'lib, ko'pchilik klassik va zamondosh olimlarimiz bu boradagi o'z fikr-mulohazalarini bildirib o'tganlar:

Q. Yahyoyev fikriga ko'ra «Soliq to'lovchilarni soliqdan ozod etish, ular to'laydigan soliq miqdorini (soliq bazasini) kamaytirish yoki soliq to'lash shartini yengillashtirish soliq imtiyozidir»[5]. Shuningdek, ushbu iqtisodchining ta'kidlashicha, soliq imtiyozi degan termin o'rniga soliq yengilligi termini bu jarayonning mohiyatini ochib beradi.

Sh. Gataulin soliq imtiyozlariga quyidagicha ta'rif beradi: «Soliq imtiyozlari amaldagi qonunlarga muvofiq ravishda soliqlardan to'liq yoki qisman ozod qilishdir (imtiyozlar, chegirib tashlashlar va hokazo)».[6]

T. Malikovning ta'kidlashicha soliq imtiyozlari deganda soliq to'lovchining soliq majburiyatlari hajmining to'liq yoki qisman qisqarishi, to'lov muddatining kechiktirilishi yoki orqaga surilishi tushuniladi.[7]

Eksport — import operatsiyalarini soliqqa tortish amalga oshirishda QQS solig'ini qaytarish (qoplash) zarurati tug'iladi, bu jarayonning mohiyati iqtisodchi olim S.Kochkalov tomonidan [8] batafsil o'rganilgan. Muallif ta'kidlashicha, "Eksport" QQSni qoplash instituti o'ziga xos xususiyatlarga, ma'lum bir funksiyalarni o'z ichiga oladi, ortiqcha to'langan soliq summalarini qaytarish instituti normalari tizimida

muhim o‘rin tutadi, QQS summalarini olish tartibini huquqiy tartibga solish sohasida muhim rol o‘ynaydi, chunki samarali bo‘lmagan holda kompensatsiya tizimi faoliyat, ayrim guruhlar uchun sezilarli buzilishlarni keltirib chiqaradi, bu esa soliq qonunchiligini amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlarni oshiradi.

Yana bir iqtisodchi olim M.Volodichev “QQSni qaytarish muammosi amalda yuzaga keladigan muammolarning aksariyati va hatto nizoli vaziyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, ularni hal qilish ko‘pincha sudlariga beriladi. Eksport qiluvchi tashkilotlar tomonidan eksport operatsiyalarini amalga oshirishda byudjetdan QQS summalarini 0% miqdorida qaytarish har qanday davlatning mavjud soliq tizimining nomukammalligi natijasida yuzaga keladigan katta muammolar orasida birinchi o‘rinlardan birini egallaydi” [9].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishida analiz sintez, induksiya va deduksiya, matiqiy abstraksiya, iqtisodiy matematik, tizimli tahlil, statistik tahlil, kabi qator tadqiqot usullaridan keng foydalanilgan. Ushbu usullar yordamida mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tanqidiy o‘rganildi, amaldagi normativ-xuquqiy xujjatlar tadqiqot ishini takomillashtirish nuqtai nazaridan tadqiq etildi.

Natijalar va muhokamalar Jahon amaliyotida soliq imtiyozlari keng tartibda qo‘llanilib, turli mamlakatlarda ular turlicha tarkibga ega. Rivojlangan davlatlar soliq tizimi amaliyotida foydalaniladigan soliq imtiyozlarining tahlili ayniqsa diqqatga sazovordir. Imtiyozlar avvalo, har bir yirik soliq turiga nisbatan qo‘llanilib, ularning asl maqsadi joriy soliqlarda yaqqolroq ifodalanadi. Soliq imtiyozlarining birinchi navbatda, ishlab chiqarish va tadbirkorlikni umumiy tartibda qo‘llab-quvvatlashga qaratilganligini inobatga oladigan bo‘lsak, ular shuningdek, ayrim ijtimoiy masalalarni hal etishga qaratilganligi bilan ham diqqatga sazovordir.

Xorijiy mamlakatlar soliq tizimi amaliyotida qo‘llaniladigan soliq imtiyozlaridan yana bir turi bu – soliqlardan to‘liq ozod qilish va “soliq ta‘tillari” muddatlarini o‘rnatish bo‘lib, bunday turdagi imtiyozlar Yevropa davlatlarida ko‘proq qo‘llaniladi. Masalan, Fransiyada kompaniyalarning chet elga investitsiya qilishga, yangi tadbirkorlarni rag‘batlantirish uchun soliqlardan vaqtincha bo‘sh bo‘lgan mablag‘larni tashkil qilishlari mumkin.

Finlyandiyada soliqlardan investitsion soliq kreditlarini yetakchi tarmoqlardan biri bo‘lgan kemasozlikni rag‘batlantirish ko‘zda tutilgan. Belgiyada soliqlardan ozod qilishning 10 yillik ta‘tili kichik venchur firmalarini qo‘llabquvvatlashga qaratilgan.

Yil mobaynida O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi 40,1 mlrd dollarni tashkil etdi. Jumladan, eksport hajmi qariyb \$15,5 mlrdga (+23,8%), import esa \$24,6 mlrdga (+21,2% ga) yetdi. Hisobot davrida — \$9,1 mlrd qiymatida passiv saldo qayd etildi. TSAda eksport hajmi qariyb 15,5 mlrd AQSh dollariga (23,8% ga ko‘paydi) va import hajmi 24,6 mlrd AQSh dollariga (21,2% ga ko‘paydi) yetdi.

Hisobot davrida — 9,1 mlrd AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi. Eksport hajmining eng yuqori ko'rsatkichlari Xitoy (\$2,2 mlrd), Rossiya (\$2,5 mlrd), Qozog'iston (\$1,1 mlrd), Turkiya (\$1,3 mlrd) davlatlarida qayd etildi. Eng kam eksport hajmi esa Janubiy Koreya

Respublikasi (\$41,6 mln) va Hindiston (\$29,3 mln) bilan amalga oshirilgan. Mahsulot ham xizmatlarning eng ko'pi Rossiya Federatsiyasi (\$4,9 mlrd), Qozog'iston (\$2,6 mlrd), Janubiy Koreya (\$1,9 mlrd) dan olib kelingan. Eng kam import Afg'oniston (\$7,3 mln) bilan amalga oshirildi. Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan uchta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Afg'oniston, Qirg'iz Respublikasi va Tojikiston shular jumlasidandir. Qolgan 17 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda, deyiladi qo'mita sharhida.

Xulosa. Yuqoridagi solishtirma ma'lumotlaridan kelib chiqib, jahon amaliyotida soliq imtiyozlarini belgilashning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini sanab o'tish mumkin:

- soliq imtiyozlarining individual xarakterga ega bo'lmashligi;
- soliq imtiyozlarining diskriminatsion xarakterda bo'lmashligi;
- soliq imtiyozlaridan foydalanishning ixtiyoriyligi;
- soliq imtiyozlarini qo'llash muddatlarining mavjud emasligidir.

Hamda ushbu ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida soliq imtiyozlarining o'rni sezilarli darajada ahamiyat kasb etib kelmoqda hamda eksportyor korxonalariga berib borilayotgan soliq imtiyozlari natijasida ular ishlab chiqargan va eksportga yo'naltirgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun mamlakatimizga kirib kelayotgan valyuta oqimi sezilarli oshib bormoqda. Bu esa, albatta, O'zbekistonning xalqaro moliya tizimiga integratsiyalashuvi kuchayib borayotganidan dalolat beradi hamda yangi xaqaro iqtisodiy marralarga erishish va moliyaviy barqaror davlat darajasiga yetishda zamin bo'lib xizmat qiladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 30.09.2022 yildagi PF-228-sonli Farmoni.

2. O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev 28 yanvar kuni PF-60 sonli «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmon

3. Yahyoyev Q. Soliq. T.: «Mehnat», 1997-y. 20-bet.

4. Gataulin Sh. Soliqlar va soliqqa tortish. T.: 1996-y. 74-bet.

5. Malikov T. Soliqqa tortishning dolzarb masalalari. T.: 2000-y. 76-bet.